

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-2/4
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Otoboy, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Zoxid Otoboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent
Pazilov Abduvayit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD
Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2/4 (123), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 430 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA

FILOLOGIYA FANLARI

Abatov D.R. Qashqadaryo xalq dostonlaridagi an'anaviy o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari	7
Abdujabbarova F.A. "Lingvomadaniy konsept" tushunchasiga oid ilmiy qarashlar tahlili	11
Abdukadyrova G. Compare-contrastive analysis of sense-perception verbs in english and uzbek	13
Abdukodirova Y.S. The analysis of proverbs about monetary units in the english and uzbek languages through methods	16
Abdumalikova D.S. Omonim so'zlarning tarjima-dagi roli	19
Abduxalimova S.U. Madaniyatlararo muloqot diskursi	21
Akifyeva O.O. The use of artificial intelligence in computational linguistics	24
Aliyeva D.Z. "Boqiy darbadar" romanida mifologik model ko'rinishlari	27
Aripova I.I., Jumaqulova Sh.Q. Ingliz tilidagi maqollarning lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash	30
Ashirmatova M.J. Terminologik tezauruslar va ularni tabiiy tilni qayta ishlash vazifalarida qo'llash	32
Atajanov Sh. Nemis tilidagi antroponimlarning assotsiativ salohiyati	35
Axmedov O.S. Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona leksikasini tartibga solish masalasi xususida	39
Axmedova K. Hasanxoja Nisoriy va Mutribiy Samarqandiy tazkiralarida adabiy qarashlar	42
Aytmuratova E.B. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi kiyim-kechak leksikasining lingvokulturologik tavsifi	45
Azizova D. Bolalarga xos buyum nomlarining semantik tuzilishini tahlil qilish	47
Babayeva I. Intertextuality in fictional and newspaper titles	50
Begimkulova Sh.A. Afg'on-Amerika adabiyotida multikulturalizmning adabiy xususiyatlari	52
Begmatova R.F. Nemiszabon so'zlovchilar nutqiy muloqotida kooperatsiyani ta'minlashda samimiyatga chaqirish taktikasining ahamiyati	56
Botirova Sh.I. Syujetning yuzaga chiqish omillari va usullari	60
Burxanova G.M. Agrar ta'lim yo'nalishlari uchun matnlar tarjimasining leksik-semantik tahlili	62
Davletova I.U., Jumaniyazova D.A. O'zbek tilshunosligida sifat komponentli frazeologizmlarning qiyosiy o'rganilishi	64
Do'smatova Z.E. The application of english to express the uzbek people's outdated traditions and customs	68
Egamberdiyev J.J. Ingliz va o'zbek izohli lug'atlarida tibbiyot terminlariga berilgan izohlar	70
Ergashev T.T. Tushuncha nomining neologizmga aylanishi omillari, sabablari	73
Ergasheva R.O'. An'anaviy obrazlarning modrenzatsiyalashuvi va transformatsiyasi	75
Fayziyeva K.A. Amerika romantizm adabiyotining yorqin vakillari misolida	78
Fayzullayeva M.Q. Xitoy tilida gastronomik metaforalarning manba va maqsadli domen tasnifi	80
Gafforov X.Sh. Ziddiyatli vaziyatlarda ayol va erkak nutqiy gender stereotiplarining morfologik xususiyatlari	85
Gafurov B.Z. Interrelatedness of linguistic and cultural worldviews in a process of studying foreign language	87
Ganiyeva Sh.A., O'rmonova M.F. Neologizmlarning sotsiolingvistik asoslari	91
Hamdamov H.A. Metaforalarni lingvistik va kognitiv-pragmatik o'rganish	94
Hamdamov H.A. Publitsistik diskursda antropomorfik metaforaning kognitiv-pragmatik xususiyatlari	97

Nasirdinova O.D. Oritirma nisbat shakllarining lingvistik ilmiy matnlarda qo'llanish darajasi	219
Nazimova H. Xalq o'g'zaki ijodida "dev" va "yalmog'iz" obrazlarining genezisiga doir nazariy qarashlar talqini	223
Niyozova Sh.T. The place of contrastive linguistics in the paradigm of linguistic sciences	226
Nizomova T.J. Sud diskursi tadqiqi va uning lingvistik xususiyatlari	230
Otaqulova S.F. Faxriya genezezi va nazariy asoslari	232
O'ngboyev R.M. "Yusufbek" dostonidagi antroponimlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari	235
Qilichova E.X. Fizikaga oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari: ko'p ma'nolilik, sinonimiya va leksik o'zgarishlar misolida	239
Qobilova N.S., Fayzullayeva N.S. Til evolyutsiyasi va tejamlilik tamoyili	242
Qobilova N.S., Fayzullayeva N.S. Poeziyada fonetik tejamlilikning ifodalanishi	245
Qodirova G.M. Umumta'lim maktablarida jadid she'riyatining o'qitilishi	249
Qosimjonova F. Iboralarning grammatik tabiatini aniqlashda kognitiv lingvistika va qiyosiy lingvistikaning ahamiyati	252
Qo'ldasheva Sh.A. Ko'pmadaniyatlilik sharoitida tilda intellektuallashuv va demokratlashuv tendentsiyalari	256
Qurbonaliyeva M.S. To'fon haqida afsonalar tahlili	258
Radjabova D.R. Badiiy tarjimaning funksional pragmatik xususiyatlari	262
Raximova U.S., Turamuratova S.B. Ingliz va o'zbek tillarida jargon so'zlarning sotsiolingvistik xususiyatlari	265
Ruzimbaeva N.T. The language of forensic science: precision and clarity in legal documentation	268
Sabirova N.E. Xorazm baxshichilik san'ati: an'anaviylik va ijrochilik	271
Safarova Z.Q. Shaxs ma'naviyatini ifodalovchi lingvokulturologik birliklarning talqini	275
Saidov M.O. Rus, o'zbek va ingliz maqollarida paremiologiyaning semantik birligi	277
Saidova M.U., Shamsiyeva S.R. Nasriy asar namunalari yaratishda badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalanish	279
Saidova Z.Kh. Importance of understanding key features of psychological aspects of language	283
Salimova S. Xitoy tilidagi harbiy terminlarni standartlashtirish masalalari	286
Satimboyeva O.A. Tilshunoslar tadqiqotlarida interferensiya nazariyasi, fonetik interferensiya	289
Shamsiyeva M.B. Tabiat elementlari tavsiflangan peyzaj matnlarining lingvokognitiv tahlili	292
Sharipova S.A. Zamonaviy tilshunoslikda neologizmlarning xususiyatlari va funksiyalarini kompleks o'rganish	295
Shodikulova A.Z. Antonim va giponim vositasida shakllanadigan metonimik kogeziya	298
Shokirov Sh.I. Ingliz va o'zbek tillarida ko'rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik xususiyati	301
Soatova Yu. Bobur lirik asarlarida gender xususiyatlarni ko'rsata oluvchi obrazlarning komponent tahlili	303
Soyipov S. "Boburnoma" asari tilida qo'llanilgan ayrim forscha sifat so'z turkumiga oid so'zlarning leksik-semantik hamda grammatik tahlili	307
Subxonova N.M. Realism and personal development in defoe's robinson crusoe: the socio-spiritual role of diligence and self-cultivation	310
Suleymanova N.M., Ravshanova R.F., Soleyeva S.S. Jamiyatda so'zning ahamiyati	313
Suyunova D.R. Shoyim Bo'tayev qissalarida badiiy konflikt	315
Tursunov M.M., Azimova Z.O'. Fentezi janriga oid asarlarning o'ziga xos xususiyatlari	318
Tursunov M.M., Turayeva R.R. Analysis of linguo-cultural features of some english and uzbek phraseological units	321

Bu atamalar bir xil fizik jarayonni anglatadi, lekin "tezlashtirish" ko'proq umumiy ma'noda ishlatiladi.

Massa markazi (Center of mass) va og'irlik markazi (Center of gravity)

Bu atamalar bir-biriga yaqin tushunchalarni bildiradi, lekin ba'zan kontekstga qarab farqlanishi mumkin (masalan, massa markazi gravitatsiya bo'lmagan muhitlarda qo'llaniladi).

Fizika terminologiyasida ko'p ma'nolilik, sinonimiya va leksik o'zgaruvchanlik til, madaniyat va fan taraqqiyoti o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni aks ettiradi. Bu xususiyatlar qiyinchiliklar tug'dirishi bilan birga, fanning lingvistik manzarasini ham boyitadi. Ushbu xususiyatlarni ta'lim, tarjima va standartlashtirish orqali hal qilish ko'p tilli va fanlararo kontekstlarda tushunish va hamkorlikni kuchaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fizika terminologiyasidagi ko'p ma'nolilik, sinonimiya va leksik o'zgaruvchanlikni boshqarish ilmiy kommunikatsiyaning aniqligi va samaradorligini oshirish uchun muhimdir. Ushbu jarayon quyidagi asosiy maqsadlarni qamrab oladi: ilmiy tushunishni kengaytirish, ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, til va madaniyatning o'zaro boyishi, ta'lim sifatini oshirish. Shunday qilib, ushbu dinamik o'zaro ta'sirni samarali boshqarish global ilmiy hamjamiyatda tushunish, moslashuvchanlik va innovatsiyani rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu nafaqat ilm-fan rivojiga hissa qo'shadi, balki global miqyosda bilimlarni yetkazish va o'zlashtirishni ham osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. García, M., & Dupont, P. (2016). A Corpus-Based Study of Physics Terminology in French and Spanish. *Revue de Linguistique Appliquée*.
2. Ivanov, A., & Ahmed, R. (2017). Comparative Analysis of Physics Terminology in Russian and Arabic. *International Journal of Language Studies*.
3. International Organization for Standardization (ISO). (n.d.). Terminology Resources. Retrieved from <https://www.iso.org>
4. IATE Terminology Database. (n.d.). Interactive Terminology for Europe. Retrieved from <https://iate.europa.eu>

UO'K 808.5

POEZIYADA FONETIK TEJAMLILIKNING IFODALANISHI

(O'zbek shoiri Ikrom Otamurod she'rlari asosida)

N.S.Qobilova, dots., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

N.S.Fayzullayeva, mustaqil tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqola til strukturasi taraqqiyoti muloqot ehtiyojlaridan kelib chiqib, aloqa uchun qulay birliklar tanlash yoki struktural o'zgarishlar yasash bilan bog'liq va bu hol ma'lum darajada til birliklarining qisqarishida o'z aksini topadi. Shu sababli lingvistik adabiyotda til birliklarining qisqarishi va muloqot uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir hodisalarni o'zida jamlovchi tejamkorlik tamoyili (ekonomiya prinsipi) va uning til evolyutsiyasidagi roli xususida anchadan buyon turli xil fikrlar bildirilmoqda.

Kalit so'zlar: Tejamkorlik, til, fonologiya, nutq birligi, tilning moddiy tuzilishi, ijtimoiy vazifasi, poeziya, Ikrom Otamurodov

Аннотация. В данной статье речь идет о развитии языковой структуры исходя из потребностей общения, выбора удобных единиц общения или внесения структурных изменений, и эта ситуация в определенной степени отражается на редукции языковых единиц. По этой причине в лингвистической литературе уже давно высказываются различные мнения о принципе экономии (принципе экономии) и его роли в эволюции языка, куда входят явления, связанные с редукцией языковых единиц и созданием благоприятных условий для общения.

Ключевые слова: Экономика, язык, фонология, речевая единица, материальная структура языка, социальная функция, поэзия, Икрам Отамуродов

Abstract. This article deals with the development of the language structure based on the needs of communication, choosing convenient units for communication or making structural changes, and this situation is reflected in the reduction of language units to a certain extent. For this reason, in the linguistic literature, various opinions have been expressed for a long time about the principle of

economy (principle of economy) and its role in the evolution of language, which includes phenomena related to the reduction of language units and the creation of favorable conditions for communication.

Key words: *Economy, language, phonology, speech unit, material structure of language, social function, poetry, Ikram Otamurodov.*

Kirish. O'zbek tilida qisqaruv hodisasi sinxroniya bilan emas, balki ko'p jihatdan diaxroniya bilan bog'liq. Bu holat uni til birliklarining tarixiy taraqqiyoti fonida olib qarashni taqozo qiladi. Har qanday taraqqiyotning manbai - dialektik qarama-qarshilikda yotadi. Tilning taraqqiyoti va amal qilinishida o'zaro dialektik aloqador va bir-birini taqozo qiluvchi ikki tomon mavjud: 1.) Tilning moddiy tuzilishi; 2.) Ijtimoiy vazifasi. Shunga ko'ra til evolyutsiyasining ikki nisbatan mustaqil yo'nalishi mavjud. Bular struktural va funksional yo'nalishlardir.

Dunyo tilshunosligida XX asrning 60-yillariga kelib matn lingvistikasi mohiyatini o'rganishga jadal kirishildi. Matnshunoslik lingvistikaning semasiologiya, grammatika, sistematika bo'limlari bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababidan tilshunoslar tomonidan o'rganilsa, nutqiy muloqotning ko'p qirraligini hisobga olgan holda, kibernetik, psixolingvist, sotsiolingvistlar ham matn strukturasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish masalalari bilan shug'ullanganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodlari. Tilshunoslikda matnning asosiy birligiga gapdan farqli o'laroq, murakkab sintaktik qurilma, deb qaraladi, "chunki murakkab sintaktik qurilma har doim kamida ikki gapning o'zaro munosabatidan tashkil topadi. Gap esa nutq birligi hisoblanadi"

Matn maqomini belgilashda murakkab sintaktik qurilma alohida mavqega ega, bunday tuzilish mantiqiy izchillik asosiga qurilgan mazmuniy yaxlitlikni yuzaga keltiradi. Ma'lumki, gap orqali hukm ifodalanishi yoki ifodalanmasligi mumkin, biroq matnda hukm doimiy mavjud bo'ladi, ya'ni murakkab sintaktik qurilmada bir mavzu atrofiga jipslashgan gaplar ketma-ket qo'llanadi va mantiqan zich aloqa zanjirini hosil qiladi. Shuningdek, matn o'z kategoriyasiga ega bo'lish bilan bir qatorda, gapdan ayri olib qaralmaydi, gap matn mazmunining yoritilishida asosiy ishtirokchi sanaladi, albatta, "gapning matn sistemasidagi o'rnini, uning matn hosil qilish qobiliyatini aslo inkor etib bo'lmaydi".

Xo'sh, matn deb nimaga aytiladi? Matn - "nutq ko'rinishi bo'lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Yagona kommunikativ vazifani bajaruvchi gap va gaplar yig'indisi tekst hisoblanadi" matnni "tugallangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langan, aniq maqsadli va grammatik qurilmali nutqiy asar" deyish maqsadga muvofiqdir. Matn strukturasida murakkab kompozitsion-nutqiy shakllar birlashuvidan tarkib topadi. Matnlarda gaplarning joylashuvi ham alohidalikka ega, masalan, gaplar qo'shiluv aloqasi asosida bog'lanishi mumkin, bunda so'zlovchi o'z fikri oxirida qo'shimcha mulohaza yuritadi yoki bunday qurilmalar so'zlovchining yodiga kutilmaganda kelgan fikrni maxsus to'xtam orqali ifoda etadi. Demak, asosiy ifoda bilan qo'shimcha ifoda birikuviga, aniqrog'i, qurilmaning uzilgan qismi bilan qolgan qismini bog'lovchi vositaga qo'shiluv aloqasi deyiladi, qo'shiluv aloqasi gap bo'laklari yoki gaplar asosida yuzaga keladi va parsellyatsiya (uzilish) hodisasi bilan chambarchas aloqadordir.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikka oid ko'pgina asarlarda bu hodisaning ekspressiv-stilistik mohiyatga ega ekanligi takidlanadi.[1] Til matn mazmunini ro'yobga chiqarar ekan, u dastavval kommunikativ, so'ngra estetik vazifa bajarishga qaratilgandir, tilda yetakchi bo'lgan mazkur ikki vazifaga ko'ra matnlar nobadiiy matn va badiiy matnga ajratiladi. Nobadiiy matndan farqli o'laroq, badiiy matnning bosh maqsadi axborotning tinglovchiga qay darajada ta'sir etishini hisobga olish, ya'ni estetik ta'sir darajasini belgilashdir, bunda emotsional-ekspressiv vositalar estetik vazifani yuzaga keltiruvchi elementlar hisoblanadi. Tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik vositalarini tanlab qo'llash imkoni badiiy matnda tasvir imkoniyati va usullarining keng hamda betakrorligini ko'rsatadi. Fonografik, leksik hamda ekspressiv-stilistik vositalar estetik qiymatni belgilovchi asosiy o'lchovlardan biridir, buning natijasi o'laroq, axborotning estetik ko'rsatkichi ekspressiv ifoda hamda emotsional qamrovning badiiy xoslanganligida ko'rinadi.

Badiiy matnning mantiqiy mustahkam tasviriyligini ta'minlashda sarlavha, intertekstuallik (epigrafi, reminissensiya (biror shoir tomonidan boshqa ijodkor ishlatgan poetik ibora yoki obrazli ifodani atayin yoxud beixtiyor o'zlashtirib ishlatish usullarining ham alohida o'rni bor. Shuningdek,

o'quvchiga estetik ta'sir etishning "yuki" ko'pincha muallifning o'ziga yuklatiladi. Demak, poetik matn ma'lum o'lchovga solingan, poetik talab asosida shakllangan, emotsionalligi yuqori darajada bo'lgan, individual kechinmalar orqali tipik kechinmalar aks ettirilgan badiiy nutqparchasidir. O'zbek tilshunosligida B.Umurqulov[2], I.Mirzayev[3] poetik matn, poetik nutqning ilmiy-nazariy asoslarini ko'rsatib berishgan. Konnotativlik, boshqa til birliklariga qiyosan olganda, fonetik vositalarda kuchliroq, tovushlarni ikkilantirish, cho'zish, tushirib qoldirish yoki orttirib qo'llash hamda supersegment vositalarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Poetik matnda alliteratsiya, assonans, geminatsiya hodisalari ma'no kuchaytirishda alohida ahamiyatga ega.

Poetik ifodani hosil qilishda poetik leksik birliklarning ma'no imkoniyati katta ahamiyatga egadir, chunki leksik birliklar borliqdagi narsa va hodisalarni nomlaydi, leksemalarda nominativlik bilan bir qatorda, konnotativlikni ham yuzaga chiqaradi. Poetik matnda so'z qo'llash va tanlash imkoniyati matnning boshqa turlaridan farq qiladi, ya'ni bunda sof poetik so'zlar tanlanadi.[4]

Konnotativ ma'no boshqa til birliklariga nisbatan fonetik vositalarda kuchli ifodalanadi, chunki tovushlar "nutqda qo'llanilishi jihatidan o'ziga xosliklarga ega" Poetik matnda tovushlarning evfonik xususiyatlari yetakchi sanalib, bu xususiyatlar tovushlarni so'z tarkibidan tushirish yoki orttirilgan holda ortiqcha qo'llashda ham ko'zga tashlanadi. Poetik matnda so'zning fonetik qiyofasiga alohida e'tibor beriladi. Demak, tovushlar nutqiy ehtiyojlarimizni qondirish bilan birga, emotsional-ekspressiv vazifa ham bajaradi. Poetik matnda asosning shakliiy tomonini tejashga intilish ko'proq so'roq olmoshlarida yuz beradi. *Nima* so'roq olmoshining she'riyatda ko'pincha *ne*, *na* arxaik shaklda qo'llanishi alohidalik, xoslikni ifodalaydi:

*Muruvvating nadur,
Xusumating nadur?
Oqibating nadur,
Qabohating nadur?
Ijobating nadur,
Kasorating nadur? (Yo'l)*

Yoki

*Men qarshingda turibman dalli,
Na deb, kanglung ko'taray, bilmam?
Na deb, senga beray tasalli:
Munisam, mutribam, mushfiqam?! (I.Otamurod)*

Olmoshlarga xos bu kabi arxaik shakllarni hozirgi variantlari bilan qiyosan olsak, ular endilikda fonetik tejamlilikka xizmat qiladi, degan fikrimiz xato bo'lmaydi, ya'ni hozirda fonetik qisqaruv deb sanaluvchi so'zlarning ayrimlari tarixan shunday tuzilishda ifodalangan. Masalan, *ne* shaklida talaffuzning xushohangligi, so'zlovchining hissiyoti kuchliroq ifodalanadi va kelishik qo'shimchalarini belgisiz olganda, ham fonetik, ham morfologik tejamlilik yuzaga keladi. Masalan, bir o'rinda uch bo'g'in tejalgan:

*Neki, ruju qo'ysa o'zin ko'rsatishga, bas,
Demak, unda pindig'lagay nedandir gumon.*

Istalagan so'zning tarkibini o'zgartirib bo'lmaydi, tovushlar buzib yoki chala talaffuz qilinganda, so'zlarning ma'nosi buzilib, ta'sirchanligiga putur yetadi. "Talaffuz qulayligiga intilish tufayli nutq jarayonida so'zdagi tovushlar zanjirida turli fonetik o'zgarishlar ro'y beradi". Ma'lumki, fuziyaning ayrim ko'rinishlari fonetik tejamlilik asosida ro'yobga chiqib, bu shakllar poetik matnda ham ifodalanadi. Bu hodisa til sathida mavjud bo'lgan meyoriy fuziya hamda shevalarda kuzatiladigan nomeyoriy fuziya kabi ikki ko'rinishga ajratiladi:

*Hov safarga hirs qo'yib, shovqinlar
Bag'rida karaxt, alang-jalang,
To'rt tomonga farqsiz ketayotgan odam,
... bir fursat bo'sa-da kangulga kirib,
Unga safar qilib, tinglaganmisan?!*

Demak, tovush yoki tovushlar birikmasining tushirilishi fonetik tejamlilik sanalib, poetik matnda ayrim so'roq olmoshlari fonetik qisqarib talaffuzni ixchamlashtiradi, vazn talabiga muvofiq

bo'g'inlar tengligini saqlashga, boshqa bir so'roq olmoshlarining semantikasini egallagan holda stilistik vazifa bajarishga xoslandi.

Muhokama. O'zbek tilidagi qisqaruv hodisasining lingvistik tabiatini mazkur tilning fonetiksi sistemasidagi ba'zi tovushlarning akustik-fiziologik jihatdan kuchsizligi tufayli talaffuzda tushib qolishi, urg'u ko'chishi, bo'g'in tushishi, o'zbek tili morfologik qurilishining o'ziga xos xususiyatlari va ular bilan aloqador jarayonlar belgilab beradi. Har bir tovush (bo'g'in) tushishi hodisasi ideal shaklning hech bo'lmaganda bir tovushga va aksariyat hollarda undan yuqori darajadagi qisqarishiga olib keladi. O'zbek tilida so'z darajasidagi yuz beruvchi qisqaruvlar morfonologik ahamiyat kasb etadilar, ya'ni u yoki bu tovushning tushib qolishi so'zning fonetik tuzilishini o'zgartirish bilan bir qatorda uning morfologik tarkibini ham o'zgartiradi va shundan kelib chiqib, o'zbek tilidagi qisqaruvlarni shartli ravishda fonetik va morfologik turlarga ajratish mumkin. O'zbek tilida so'z darajasidagi yuz beruvchi qisqaruvlar morfonologik ahamiyat kasb etadi, ya'ni u yoki bu tovushning tushib qolishi so'zning fonetik strukturasini o'zgartirish bilan bir qatorda uning morfologik tarkibini ham o'zgartiradi va shundan kelib chiqib, o'zbek tilidagi qisqaruvlarni shartli ravishda fonetik va morfologik turlarga ajratish mumkin.

Sinxron plandagi qisqargan til birliklari o'zlarining to'liq shakllariga ega bo'ladilar va shu sababli til me'yoriga singib keta olmaydilar, diaxron plandagi qisqaruvlar esa me'yor tusini oladi, bu to'liq shaklning butunlay iste'moldan chiqqanligi yoki ideal va qisqargan shakllar o'rtasida ro'y bergan ma'no urchishi tufayli yuz beradi.

Xulosa. Shu o'rinda aytish kerakki, tildagi tejamkorlik tamoyili so'zlovchi (individd)ning ruhiy, psixofiziologik quvvatini til birliklarini qisqartirish, tushirib qoldirish orqali tejash, muloqotga ketadigan vaqtni kamaytirish, tildagi ortiqchalikni bartaraf etish ehtiyojlaridan kelib chiqib, zohir bo'ladigan umumtil tendensiyasidir, tejamkorlik o'z mohiyatiga ko'ra nutqiy aloqani osonlashtirishga xizmat qiladi va uzatilayotgan axborotning sifatiga salbiy ta'sir o'tkazmaydi. Tejamkorlik ham, qisqaruv ham til taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shadigan hodisalar bo'lsa-da, ularning til evolyutsiyasidagi rolini absolyutlashtirib bo'lmaydi: tilda tejamkorlikka ham, qisqaruvga ham qarshi turuvchi tendensiya va hodisalar mavjud, masalan, tildagi ortiqchalik xususiyati va uning so'z darajasidagi alohida hollari - proteza va pleonasm.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldoshev M. Badiy matn va uning lingvopoetik tahlil asoslari. T.: Fan, 2007.-B.11 individual neologizmlarga murojaat etiladi, natijada borliq, inson vauning ruhiy olami, surat va siyrati uyg'unlikda yangitdan kashf etiladi.
2. Umarqulov.B Poetik nutq leksikasi. - Toshkent: Fan, 1990
3. Mirzayev I.. Problemi lingvopoeticheskoy interpretatsii stixotvornogo teksta: Avtoref.diss....d-ra filol. nauk. - Toshkent 1992.
4. Umarqulov.B Poetik nutq leksikasi. - Toshkent: Fan, 1990
- 5.Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.:O'zbekiston, 1992.
6. Nazarova, N. (2024). Лексикографическое путешествие по «Крестному отцу». Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 58(58).
7. Nazarova, N. (2024). Anthroponyms as reflections of culture and identity. Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 59(59).
8. Kobilova, N., & Azimova, M. (2024). Language units expressing the concept of evaluation. B science and innovation in the education system (T. 3, Выпуск 12, cc. 84–87).

UO'K 808.5

TIL EVOLYUTSIYASI VA TEJAMLILIK TAMOYILI

(tejamlilik va ortiqchalik tamoyillari)

N.S.Qobilova, dots., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

N.S.Fayzullayeva, mustaqil tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqola tejamkorlik tamoyilining ta'siri tilning ortiqchalikka intilishi tendensiyasi bilan bartaraf qilib turiladi. Tejamkorlik tamoyilining barcha turlari kabi qisqaruv ham tilning asosiy funksiyasi -kerakli axborotni to'la yetkazishga xalaqit bermasligi lozim. Uzatilayotgan fikrni ifoda etishga qodir ixcham, muxtasar shaklda bayon etilishi- tejamkorlikning qaror topishidir. Shu kabi til birligining tarkibiy qismlari (komponent, bo'g'in, tovush) tushib qolishi, kuchsiz talaffuz